

Vodiylardan so'z ochgim keldi...

www.tongyulduzi.uz



Vatan yagenadir,
Vatan bittadir!

2011-yil
14-mart
N:11
(66812)

ISSN - 2010-6092

Siz bahorning egizagisiz!



**Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini olgan qizlar
orasida namanganlik tengdoshingiz
Oyxon Erkinjonova ham bor**

8-bet

Yaratish va yashnatish fasli Ko'klamoy yurtimizga qo'sha-qo'sha bayramlari bilan tashrif buyurdi. Kuni kecha nishonlaganimiz 8-Mart - Xalqaro xotin-qizlar bayrami kayfiyati qalblarimizni hali tark etmay turib, yurtimiz uzra Navro'z shodiyonalari shukhi kezib yuribdi. Bayram arafasida adabiyot, san'at, fan, ta'lim, madaniyat sohaslarida erishgan alohida yutuqlari uchun Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlangan 14 nafar qizlarimiz quvonchi, ayniqsa, cheksiz. Oy yuzlari faxr va iftixordan, ibo va hayodan yal-yal yonib turgan bu singillarimizni Bahoroyning egizagi degimiz keladi.

Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan mazkur Zulfiya nomidagi Davlat mukofotining ta'sis etilishi

izlanuvchan, faol, tashabbuskor va iqtidorli qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish, yangi marralar sari chorlashda muhim omil bo'lmoqda.

Zero, ayollari qadrlangan, e'zoz topgan yurtning kelajagi nurafshondir.

**Jamoamiz nomidan yuksak Davlat
mukofoti bilan taqdirlangan zukko va
izlanuvchan qizlarimizni chin dildan
qutlaymiz!**

Tahririyat



G'olibaning Galabasi

Gazetamizning doimiy muxlislari jurnalist Ma'mura Madrahimova (G'oliba)ni yaxshi bilishadi. Sport bo'limi muharriri sifatida yurtimizning turli go'shalarida o'tkazilgan musobaqalar-u, kamol topayotgan chempion bolalar va ularning murabbiylari haqida qaynoq maqolalarni tayyorlashda u kishining oldiga tushadigani kamdan-kam topiladi. Qo'lingizdagi maxsus sonni tayyorlashda ham Ma'mura opangiz alohida jonbozlik ko'rsatdi. Qorli dovonlar osha go'zal Namangan viloyatiga safar uyushtirib, u yerdagi bunyodkorlik, ta'lim sohasidagi yangiliklar-u, go'zallik yaratayotgan insonlar haqida ajoyib ma'lumotlar to'plashga erishdi. 1000 dan ziyod qalam sohibalari da'vogarlik qilishgan «Atirgul» Respublika tanlovida o'n ikki nafari g'oliblik shohsupasiga ko'tarilishdi. Ularning ichida Ma'mura opangizning ham borligi hammamizni iftixorga to'ldirdi. Mukofot muborak!

Namangan viloyatiga bag'ishlangan

MAXSUS SON



NAMANGAN SHAHRIGA BORSAM...

Gazetamizning zukko muxlislari!
Sizlardan kelayotgan maktublardan ma'lum bo'lishicha, maxsus sonlarimiz bois turli viloyatlardagi ko'plab tengdoshlaringiz hayotiga oid qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'lib. Yurtimiz haqida bilganlaringizni yanada boyitish maqsadida gullar shahri Namanganga otlandik. «Gullar bayrami»da bo'lganmisiz? Balki eshitgan chiqarsiz. Shunday bo'lsa-da, azbaroyi qizig'ligidan yana so'zlab bergim keldi. Ko'z oldingizga keltiring: viloyat markazidagi madaniyat va istirohat bog'i. Barcha tumanlardagi korxona, maktab, kollej, litseylarning o'qituvchilari, hatto bog'cha tarbiyalanuvchilari ham o'zlarini parvarish qilayotgan anvoysi gullarni namoyish etish uchun olib kelishgan. Angishvonadek tuvachkacha o'tqazilgan guldari tortib, qulochoq yemmasi tuvachkacha gullar. Bog'ni gullarning muattar hidi tutib ketadi. O'zingni cho'g'dek gillamlar to'shalgan chamanzorida yurgandek his qilasan kishi. Bunday ajoyib bayram qachon bo'larkan, deb ichingiz qizib ketgandir. Bu tabiiy hol. Chunki siz hozir shunday yoshdasiz. Go'zallik, gullar sizning jon-u dilingiz. Gullar bayrami esa har yili avgust oyida bo'lib o'tarkan. Biz ertaroq yo'lga tushibmiz. Lekin afsuslanmadik. Namangan istiqloq yillarida o'zgacha chiroy kasb etdi. Viloyatga kirishingiz bilan ko'zingiz quvaydi. Ravon yo'llar, bir xil andozadagi ko'rkam imoratlar shahar chiroyiga chiroy qo'shgan. Oliyog'lar, kollej,

litsey va maktablardagi shart-sharoitlar zamon talablari darajasida. Ularda tahsil olayotgan tengdoshlaringiz ham o'z navbatida bunday g'amxo'rliklarga «labbay» deb javob berayotganlarini ko'rib, ko'ksimiz iftixorga to'ladi. Xursandchiligimizga sizlarning ham sherik bo'lishingizni istadik.

Gullar shahri Namanganga xush kelibsiz!

Namangan viloyati Farg'ona vodiysining shimoliy-g'arbiy qismida Tangri tog' tizmasi tarmoqlari Qurama va Chotqol tog'larining yon bag'rida joylashgan. Viloyatda 16 ta daryo va soy, ko'plab mavsumiy soylar mavjud. Eng katta daryosi – Sirdaryo. U Norin va Qoradaryoning qo'shilishidan hosil bo'ladi.

Bu zamindan ko'plab iste'dod sohiblari yetishib chiqqan. Abu Rashid – Ahmad Axxikatiy, Abul Vafo Axxikatiy o'z davrining yetuk adib va zukko olimlari edilar. O'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandasi Boborahim Mashrab ham shu o'lkada voyaga yetdi. XIX asrning birinchi yarmida Fazliy, Nodir, G'oziy, Majzub, Munshiy, Muxlis, Mahzun kabi adabiyotimizning ko'zga ko'ringan namoyandalari o'zbek adabiyoti rivojiga munosib hissa qo'shdilar. Ularning izdoshi Muhammadsharif So'fizoda



Viloyatda jami 1273 ta ta'lim muassasalari mavjud. Jumladan, 688 ta maktab, 479 ta maktabgacha, 47 ta maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, 17 ta musiqa va san'at maktablari, 40 ta bolalar sport maktablari faoliyat yuritadi.

490 ta maktabgacha ta'lim muassasalari hamda 5 ta turli tashkilotlarga qarashli 26 ta xususiy maktabgacha ta'lim muassasalarida 44984 nafar kichikintoylar ta'lim-tarbiya olmoqdalar.

19 ta maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarida 1149 nafar nogiron bo'lgan bolalarni sog'lomlashtirish ishlari olib borilmoqda.

14 ta «Bog'cha-maktab» majmualari mavjud.

«Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi» ko'rik-tanlovida faol qatnashgan, Davlat ta'lim standartlari talablarini yuqori darajada bajargan o'qituvchilardan 5 nafari Davlat mukofotlariga sazovor bo'ldilar, 50 nafarining ko'ksini «Xalq ta'limi a'lochisi» nishoni bezab turibdi.



Aziz bolajonlar!
Gazetamizning o'tgan sonida O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Bolalar va o'smirlar adabiyoti Kengashining kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tgani haqida xabar bergan edik.

birinchi seminarini o'tkazish va tashkil etish bilan bog'liq masalalarga qaratdi.

Darvoqe, bu seminar bolalar uchun ijod qilib kelayotgan katta-yu kichik ijodkorlar uchun haqiqiy adabiyot bayrami bo'lib qolishi kutilmoqda.

So'zga chiqqan taniqli bolalar shoiri va tarjimoni Tursunboy Adashboyev bu yil o'nga yaqin bolalar shoirlari va o'quvchilari qutlug' yoshga to'lishlari munosabati bilan ular



Filologiya fanlari nomzodi Rahmatilla Barakayev, professor Safo Matchonov, shoir Miraziz A'zam, «Tong yulduzi» gazetasi Bosh muharriri, yozuvchi To'liqin Hayit, shuningdek, «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasining bosh tahririyati xodimi Zebo Mirzahakimova, «G'uncha» jurnali xodimi, shoir Oygul Suyundiqova, shoir Kavsar Turdiyeva, yozuvchi Muazzam Ibrohimova, shoirlar D.Rajab, A.Akbar va B.Fazliddin yig'ilishda aytilgan fikr-mulohazalar yuzasidan o'z takliflarini bildirdilar.

Bolalarni quvontirib yashaymiz

Yig'ilishni O'zbekiston xalq shoiri, Kengashning faxriy raisi Anvar Obidjon ochib, yillik ish rejasining muhim jihatlariga e'tiborni qaratdi.

– Respublikamiz Mustaqilligining 20 yilligini yangi-yangi badiiy publistsitik asarlar yozib, joylarda yosh kitobxonlar bilan yanada ko'proq adabiy-badiiy uchrashuvlar o'tkazish bilan kutib olishimiz lozim, – dedi sevimli shoirimiz o'z so'zining debochasida. So'ng, yig'ilganlar e'tiborini shu yilning aprel oyida o'tkazilishi mo'ljallanayotgan Respublika bolalar ijodkorlarining



ijodini radio, televideniye va bolalar matbuotida kengroq targ'ib-tashviq qilish masalalariga qaratdi. Shoir o'z so'zida bolalar nashrlari o'z sahifalarida ana shunday materiallarni bera boshlashganiga e'tiborni qaratib, «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasining bosh tahririyati tomonidan kitoblari yaqinda chop etilgan Z.Isomiddinov, X.Komilov, S.Inoyatov kabi turli viloyatlarda yashab ijod qilib kelayotgan iste'dodli bolalar shoirlari bilan joylarda kitoblar taqdimotini o'tkazishni, «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasida bugungi bolalar adabiyoti oldida turgan dolzarb masalalar haqida davra suhbatini uyushtirish lozimligi haqida fikr bildirdi.

Taniqli yozuvchi Erkin Malikov Mustaqilligimizning 20 yillik to'yiga atab dolzarb publistsitik maqolalar, ocherklar yozish bugungi kunda bolalar ijodkorlari oldida turgan muhim vazifalardan ekani haqida so'z yuritdi. – Afsuski, gullab yashnayotgan, kundan-kunga tobora ko'rkamlashib, chiroy ochib borayotgan shaharlarimiz, joylardagi bunyodkorlik ishlari haqida badiiy qissalar, hikoyalar yaratishda oqsaymiz. Shu ma'noda, barchamiz yosh kitobxonalardan qarzdormiz. Bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashimiz uchun, avvalo, publistsitikani rivojlantirishimiz, uning imkoniyatlaridan kengroq foydalanishimiz kerak, – dedi sevimli yozuvchimiz o'z so'zining oxirida.

TAHRIRIYATDAN:

Yosh qalamkashlar diqqatiga!
Shu yilning aprel oyida O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan Mustaqilligimizning 20 yilligiga bag'ishlab «Do'rmon» ijod uyida o'tkazilishi kutilayotgan «Bolalar adabiyoti kunlari» seminariga yosh qalamkashlar turkum she'rlari yoki hikoyalariidan iborat ijod namunalarini (nomzodning pasport nusxasi, tarjimai holi va surati ilova qilingan holda) 2011-yilning 20-martiga qadar O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Bolalar va o'smirlar adabiyoti Kengashiga taqdim etishlari lozim.



Dilshoda DADAJONOVA,
Namangan viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i:

ULUG' MAQSAD SARI

– Viloyat Xalq ta'limi boshqarmasida «Ta'lim to'g'risidagi» Qonuni, «Kadrlar tayyorlash borasidagi milliy dasturi», Yurtboshimizning ta'limdagi islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha qabul qilingan Farmonlari, hukumatimiz Qaror va farmoyishlari asosida muayyan ishlar amalga oshirilmogda. Har bir maktabimiz bu borada peshqadamlikni qo'ldan bermaslikka intilishadi. Yangilikka intilayotgan ilg'or o'qituvchilarimiz tomonidan bir-biridan giziqarli, ibratli tadbirlarning o'tkazilishi o'quvchilarni bilimdonlikka chorlaydi. Ana shunday fidoyi ustozlarimiz mehnati bez qolmayapti.

«Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi» ko'rik-tanlovining Respublika bosqichida Mingbuloq tumanidagi 15-umumta'lim maktabining ingliz tili fani o'qituvchisi Feruza Erqulova 1-o'rinni, Namangan shahridagi 31-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Mohira Mamatova 2-o'rinni, shaharimizdagi 51-maktabning boshlang'ich sinf muallimasi Ra'no Xolmatova 3-o'rinni egalladilar.

Tajribali ustozlardan saboq olayotgan o'quvchilarimiz doimo izlanishda. O'tgan yil sarhisobiga nazar tashlar ekanmiz, iqtidorli o'quvchilarimiz ko'plab yutuqlarga erishishganiga guvoh bo'ldik. Jumladan, o'lkashunoslik yo'nalishida «O'zligingdan aylanay, o'lkam» mavzusidagi ko'rik-tanlovda Norin tumani jamoasi Respublikada faxrli 2-o'rinni, «Yosh maqomchilar» ko'rik-tanlovida Chust tumanidagi 51-maktabning 6-sinf o'quvchisi Iftixor Ergashaliyeva Respublikada 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

Viloyatda «Ustoz – shogird» maktabi tashkil etilgan bo'lib, unda 226 nafar ustozga 678 nafar shogird birlashtirildi.

Shuningdek, uy sharoitida yakka tartibda ta'lim olayotgan o'quvchilar ham e'tiborimizda. Bugungi kunga qadar Norin tumanida 6 nafar, Chust tumanida 6 nafar, Chortoq tumanida 45 nafar, Namangan shahrida 3 nafar, Uychi tumanida 1 nafar, Mingbuloq tumanida 1 nafar, Yangiqo'rg'on tumanida 1 nafar, jami 48 nafar imkoniyati cheklangan o'quvchilar kompyuter bilan ta'minlandilar.

Farzandlarimizning har tomonlama barkamol avlod bo'lib kamol topishlari bizning eng ulug', eng muqaddas vazifamizdir.

QALBIDA QUYOSHI BOR

Chindan ham bu galgi sayohatimiz mobaynida aslo zerikishga o'rin qolmadi. Sababi, bunyodkorlik va go'zallik timsoliga aylanayotgan Namangan bizga xuddi ertaklardagi sehri shaharni eslatdi. Voy-bo', osmono'par binolar, ko'p qavatli uylar, bir-biridan chiroyli maskanlar, majmualarning ko'pligini aytmaysizmi?!

Shahardagi katta o'zgarishlarni ko'rib, adashib qolmaslik uchun viloyatning «Murabbiy» gazetasi Bosh muharriri



Olim aka
Xonnazarovni hamrohlikka chorladik.



he, shaharda hali qishning hukmronligi tugamay, yangi bog'da bahor boshlangandek... Hozircha 120 tupdan ortiq archalar alohida did bilan ekilgan. Maydonchalarda joylashtirilgan sehri xarsang toshlar go'yo ertak aytayotgandek...

Bog' o'rtasida esa bolajonlar uchun qurilayotgan yopiq attraksion ishlari tugallanish arafasida...

Namangan tumanida joylashgan maktablar hayoti bilan yaqindan tanishib, o'qituvchi va o'quvchilar bilan suhbatlashganimizda, shuni bildikki, tuman hokimi Javlonbek Yuldashev o'quvchilar davrasida tez-tez bo'lib, ular bilan dildan suhbatlashar, ularning ochiq darslarida, tadbirlarida ishtirok etishga oshiqar ekan. Ana shunday tadbirlardan biri kuni kecha 22-maktabda bo'lib o'tdi.

Tohirjon HASANOV,
Namangan tumani Xalq ta'limi bo'limi mudiri:

– O'quvchilarimiz juda tirishqoq, intiluvchan. Ularning yutuqlarini ko'rib, umrimiz bekorga o'tmayotganidan sevinaman. Birgina fan olimpiadasining

Atrofida zamonaviy sport majmuasi, kollej binosi, ko'p qavatli turar-joylar savlat to'kib turibdi. – Bog'imiz, – deydi Olim aka, – 12 gektardan iborat.



Hali bu bog'imiz eng sevimli dam olish maskanimizga aylanadi.

– Undagi ishlarga boshchilik qilish kimning zimmasida ekan-a? – deymiz hayratimizni yashirolmay.

– Kimning bo'lardi, tinib-tinchimas, ishlab charchamas viloyatimiz Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i Dilshoda opa Dadajonovaning-da!

Bu gapni eshitib, aziz bolalar, biz qalbida quyoshi bor, Namanganing fidoyi ayoli Dilshoda onamizning huzurlariga oshiqdik:

– Kechagina bu yerlar o'nqir-cho'nqir tepaliklardan iborat edi, – deya gap boshladilar ta'lim bilimdoni Dilshoda opa. – Avval bu yerlarga ketmon ursak, ko'kka sakrardi. Oz fursatda mashaqqat bilan yerni tekisladik, mayda-mayda toshlardan tozalashning o'zi bo'lmadi.

Mehnatlarimiz evaziga bu joy ko'rkam boqqa aylanyapti. Ishlarimiz tugamasdan, aholi hozirdanoq bog'imizga sayohatni boshlab yuborgan. Saylga bolalarimiz allaqachon 1000 dan ziyod varraklarini tayyorlab qo'yishgan. «Kamolot bog'i»mizni bunyod etishda noan'anaviy usulni qo'llayapmiz. Har bir archa, gul ko'chatlari orasiga ertak qahramonlari haykalchalarini, bolalar ijod namunalari joylashtirmoqdamiz. Viloyatimiz maktablaridagi issiqxonalaridan keltirilgan 479 tup limon va gul ko'chatlari ham bog' husniga husn qo'shadi. Bundan tashqari, poytaxtga 1000 tupdan ortiq manzarali shamshod guliga buyurtma berganmiz. Xullas, bog'imiz bebaho ma'naviy timsol ramziga aylanadi.

BOG'IMIZGA MARHAMAT!



o'tgan yilgi natijalariga ko'ra, viloyat bosqichida umumjamoa hisobida tuman jamoasi ikkinchi

o'rinni egalladi. «Yangi avlod – 2010» bolalar ijodiyoti festivalining Respublika bosqichida 22-maktab o'quvchisi Odinaxon Abdullayeva, 23-maktabning 8-sinf o'quvchisi

Kamronbek Yo'ldoshboyev laureat bo'lib qaytdilar.

O'tgan yili kurash bo'yicha o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida 25-maktab o'quvchilari Yoqubjon Siddiqov, Zafar Xolmirzayev, Yangiqo'rg'on tumanining Iskovot qishlog'ida Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi sovrini uchun o'tkazilgan Respublika turnirida 12-, 15- maktab qizlar jamoasi faxrli o'rinlarni egalladilar.

Bu borada ustozlarimiz ham bo'sh kelishmayapti. «Yilning eng faol ma'naviyat targ'ibotchisi» ko'rik-tanlovida 8-maktabning o'zbek tili va adabiyot o'qituvchisi Zulfiya Usmonova viloyat bosqichining g'olibi bo'ldi.

BIR TUMANDA...



Guldastaga o'ralgan shahar



2011-yilning «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» deb nomlanishi Namangan tumanidagi 28-umumta'lim maktabi o'quvchilarini birdek quvontirdi. Chunki ular bu sohada allaqachon o'z faoliyatlarini boshlab yuborgan edilar-da!

MAKTABDAGI ISSIQXONA

Maktab issiqxonasida 4000 tup viola, 4000 tup yetti go'zal gullari, 5000 tup petunya gullari yetishtirilmoqda. Maktab gulzoriga 100 tup atirgul ekilgan. 0,10 gektar maydonda sarimsoqpiyoz, 0,06 gektar maydonda ismaloq yetishtirilishi maktab o'quvchilarining ko'k somsani hammadan ham ko'proq xush ko'rishlarini anglatadi.

656 nafar o'quvchisi bo'lgan maktabda qo'shimcha daromad topish maqsadida tovuq va qo'yalar ham boqilmoqda.

O'tgan yili ikki million so'mdan ortiq mablag' topilgan bo'lib, bu mablag'larning bir qismi o'quvchilarni rag'batlantirish, kam ta'minlangan oila farzandlariga moddiy yordam ko'rsatish va sport jihozlariga sarflandi. Bundan tashqari, qo'shimcha issiqxona tashkil etildi.

Maktab rahbari Mamasoli Rahmatovdan kelgusidagi rejalar xususida so'raganimizda, quyidagicha javob berdilar:

— Bu yil maktabimizda limonxona tashkil etish niyatidamiz. Shuningdek, «Mustaqilligimizning 20 yilligiga 20 tupdan ko'chat» shiori ostida ayni kunlarda maktabimizda 80 tup yong'och, 110 tup bodom, 20 tup o'rik ko'chatlari ekildi. 200 tup mevali va manzarali daraxt ko'chatlari zaxirasi tayyorlandi.

Bu kabi xayrli ishlar zahirida ulug' maqsadlar yotgani tayin. O'ylaymizki, mazkur maktab o'quvchilari tadbirkorlar yilida o'z bilim va tajribalarini yanada boyitadilar.


Alkimyogarlardan biri o'z tajriba xonasida aralashtirish, qaynatish, bug'latish, sovutish ishlari bilan mashg'ul bo'lib turgan ekan. Bir payt ko'zi qaynatib, sovutib qo'yilgan kolbaga tushadi. Qarasa, kolba ichida sap-sariq, yaltiroq, chiroyli «oltin» parchalari hosil bo'libdi.

— Topdim, oltin topdim! — deya suyunib ketibdi u. Shoshilib qiziga ko'rsatmoqchi bo'lganda, qo'li qaltirab, kolba yerga tushib sinibdi va «oltin» tuproqqa aralashib ketibdi. Har qancha harakat qilib tuproqni yuvsam ham «oltin»ni topolmabdi.

Qani, ayting-chi, alkimyogar olim hosil qilgan modda haqiqatan ham «oltin»midi?

Bu savolning javobini Namangan shahridagi 5-maktabning 2-«A» sinf o'quvchilari juda yaxshi bilishadi. Sababi, ularning oliy toifali ustози Marg'uba opa Mirjalolova matematika darsida noan'anaviy «Evrika» usuli asosida mashg'ulotlar olib boradi.

Bu esa bolajonlarning bilimini oshirishga, fikr doirasini kengaytirib, aqlini charxlashga xizmat qilmoqda.



O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi YUNISEF xalqaro tashkiloti bilan hamkorlikda «Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni joriy etish bo'yicha maktabgacha ta'lim mutaxassislarining metodik-salohiyatini oshirish» loyihasi amalga oshirildi.

Namangan tumanidagi 39-maktabgacha ta'lim muassasasidagi

JAJJI GULCHILAR

kichkintoylarni jajji gulchilar, deyishadi. Bunga sabab, qumog'lar maskanida gulchilik to'garagi tashkil etilgan bo'lib, to'garak a'zolarining soni kundan-kunga



ortib borayotganida.

Bog'bon kichkintoylar o'stirayotgan nafis gullar Namangan shahrining ko'rkiga ko'rk qo'shmoqda.




RASMLAR

Qog'ozga-da, deysizmi? Afsuski, topolmadingiz! Demak, yana sayohatga o'tlanamiz. Shahardagi 24-maktabgacha ta'lim muassasasiga borsangiz, sarflagan vaqtigingizga aslo achinmaysiz. Tomoshani mas-kanning bo'sh qolmagan devor-laridan boshlang.

Mudira Feruza opangiz tarbiya-chilar sulolasida voyaga yetgani, tarbiyachilik kasbini qadrlagani bois, ijodiy yutuqlarga boy.

— Bolalar bilan ishlash mening orzum edi, — deydi opa. — Dargohimiz go'zal bir oilaga o'xshaydi. Oltita guruhda ta'lim-tarbiya olayotgan 110 nafar bolajonlarning har biri farzandimdek aziz. Rahima Komilova, Mahmuda Otaxonova kabi shirinso'z bog'cha opalari bilan bolajonlar hecham zerikmaydilar. Ayniqsa, musiqa ustozlari Tinara Mamayusupovaning yangi-yangi kuy-qo'shiq-



laridan yayrab ketadilar. Har bir xodimimiz ishbilarmon desam, xato bo'lmaydi. Chunki biz eskirgan va yaroqsiz holga kelib qolgan jihozlarimizni tashlab yuborishga aslo shoshilmaymiz. Aksincha, ularni mohir ustalar yordamida bejirim va qulay qilib guruhimizni bezaymiz.

— Hatto devorlarimizni ta'mirlab, «tilga» kirgizib deng?!

— Albatta, bog'chamizga yig'lab keladigan bolani topolmaysiz. Axir devorlarimiz ham «ertak aytadi».



Qadrlı «Tong yulduzi»m! Men Sizga gullar shahri Namangandan salom yo'llayman. Iye, gazetaga ham «siz»lab murojaat qiladilarmi, deya ajablanayotgandirsiz?! Ha, men sevimli nashrimni «siz»layman. Chunki bu gazeta bobojonim bilan tengdosh – 81 yoshda.

Siz bobomga tengdosh-siz

Men qo'lga kiritgan yutuqlarimni respublikadagi tengdoshlarim bilan o'rtoqlashgim keldi. Turli tanlovlarda qatnashib, talaygina yutuqlarni qo'lga kiritdim. «Kamalak» bilimdonlari ko'rik-tanlovida uchinchi o'rinni egallagan bo'lsam, ifodali o'qish, chiroyli yozish tanlovida birinchi o'ringa loyiq topildim.

«Kamalak» malikasi tanlovining maktab bosqichida bellashib, ikkinchi o'rin sohibasi bo'ldim.

Shuningdek, rasm chizishni, she'rlar mashq qilishni yoqtiraman. Bahor bayramlariga atab chizgan gullarim dugonalaringa sovg'a bo'lsa degandim.

Naima O'RMONBEKOVA,
Uychi tumanidagi 36-umumta'lim maktabi o'quvchisi



NIHOL

Yangiqo'rg'on tumanining Birlashgan qishlog'ida joylashgan 2-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Abdullo Abdug'afforov rasm chizishga juda qiziqadi. Uning «Malika va besh farishta», «Nihol», «Bobo» nomli rasmlari sizga ham manzur bo'ladi, degan umiddamiz.

AMMOLAR

KATTA BO'LSAM...

–Ayt-chi, o'g'lim, katta bo'lsang kim bo'lasan? – deb so'radi dadasi Diyorbekdan.

–Kuyov bo'laman, – dedi u hozirjavoblik bilan...

–Nargiza, ovqatingni go'shti

biroz qattiqroqmi?

–Bilmadim, oyijon, men uni kitobga qarab tayyorladim. Unda bir kilogramm go'shini bir soat qaynatasiz, deb yozilgan ekan. Men yarim kilogramm solganim uchun yarim soat qaynatdim.

Shohista ISOQJONOVA,
To'raqo'rg'on tumani, Yortepe qishlog'i



QO'L TELEFONI

O'zi juda qiziq-da,
Yaratilgan ajoyib.
Quloqdan ajratmaydi,
G'aroyibdan-g'aroyib.
Xuddi olov yoqqandek,
Suhbatimiz qiziydi.
Shu tariqa bir zunda,
Cho'ntagimiz quriydi.
Yashayapmiz barchamiz,
Raqamlarni tinch qo'ymay.
Suhbatlashaveramiz,
Goho kechgacha to'ymay.
Xuddi injiq boladek,
Tinchlikni suymaydi u.
Gohida biz, gohida
Bizni tinch qo'ymaydi u.
Javobini aytay deb,
Yo'lga chiqdim, qaytaman.
Ey, yaxshisi javobin,
Telefonimda aytaman.

Oyxon ERKINJONOVA

TOPIISHMOQLAR



Boshda katta sallasi,
Toshar bahor pallasi.
Insonlarga zo'r emish,
Chaqmoq hamrohi emish.

Xazinaning biri der,
Don sochsangiz, terib yer.
Og'zida yo'qdir tishi,
Kavlab titishdir ishi.



Orzigul DEHQONOVA,
Chust tumanidagi
21-umumta'lim maktabi o'quvchisi

JO'JA

Ochib chiqdim tuxumdan,
Qochib chiqdim uyimdan.
Orqadaman dadamdan,
Oldindaman oyimdan.

Hammadan oldin chiqib,
Qarang, afsusda qoldim.
Xo'jayinga tutilib,
Katakchadan joy oldim.



Iqbola XO'JAYEVA,
Namangan tumanidagi
3-umumta'lim maktabining
4-«A» sinf o'quvchisi

VATAN

Ko'zga surtib tuprog'ing Temur,
G'olib bo'lgan jangda mardona.
Shaloladay tiniq, shaffof dur,
Vatan ordir, Vatandir ona.

O'n sakkiz ming olamlar aro
O'zbek yurti yakka, yagona.
Yurtim, yuzing bo'lmaydi qaro,
Vatan ordir, Vatandir ona.

Tabarruksan, go'zal, ko'rkamsan,
Ta'rifiyngni kuylayin yana.
Go'zallikda tengi yo'q o'lkam,
Vatan ordir, Vatandir ona.



Tuprog'ingda rayonlar o'sar,
Erkalanib yo'limni to'sar.
Ozodlikning epkini esar,
Vatan ordir, Vatandir ona.

Abdullo ABDUG'AFFOROV,
Yangiqo'rg'on tumanidagi
2-umumta'lim
maktabi o'quvchisi

Bodamlarning shoxida,
Kurtak una boshlabdi.
O'lkamizga bahoroy,
Qutlug' qadam tashlabdi.
Qir-adirda boychechak,
Tomimizda qizg'aldoq.
Majnun to'lochi popuk,
Yong'oq ham taqdi baldoq.
Ey, Bahoroy, xush kelding
Quvontirib bizlarni.
Ayt, sen ham sog'indingmi,
Bizdek o'g'il-qizlarni?

Sog'indingmu?



Nodira IBRAGIMOVA,
Uchqo'rg'on tumanidagi 36-umumta'lim
maktabining 6-«B» sinf o'quvchisi

CHORTOQ

Dunyoda hech tengi yo'q.
Chortoqim manzarasi.
Go'zalligi betakror,
Tumanlarning sarasi.
Qirlari yashil o'tloq,
To'rt tarafda to'rtta tog'.
Bag'ringda kamol topay,
Yakkam, yagonam Chortoq!



Nozima G'AFUROVA,
Chortoq tumanidagi Laskidon qishlog'i

MEHR NURI


Mehr nuri porlab tursin yuraklarda,
Ko'ngil bog'i xushbo'y gullar bilan to'lsin.
Zavq yog'ilsin har bir aytgan tilaklarda,
Doim sog'inch maktublarin tilga kirsin.
Mehr nuri porlab tursin yuraklarda,
Chorlasa gar o'sha mehr, bergay bayot.
Mehr to'la o'lka sog'inch bilan,
Murg'ak qalbda nur sochadi bu kun hayot.

Tursunoy JARQINOVA,
Chust tumani

ASRLARNI QARITGAN CHINORLAR

Chust Farg'ona vodiysining ko'hnashaharlaridan biri. Shaharning shimoliy qismidagi Buconamazor (Bibionamazor) manzilgohi hududidan Chust madaniyati tarixiga oid materiallar topilgan. Shoir va sarkarda Boburning otasi Umarshayx Mirzo 1480-yilda Chustni o'z qarorgohiga aylantirgan.

Tarixiy manbaalar shahar qadimdan Chust va Tus nomlari bilan ma'lum bo'lganligidan darak beradi. Olimlarning fikricha, chust so'zi forschada «tez», «tezkor» ma'noni bildiradi. Qadimdan chustlik temirchilar, to'quvchilar, sohol buyumlari ustalari, zargarlarning mahorati shuhrat qozongan. Chust pichoqlari va do'pplariining ta'rifi xoriigacha borib yetgan.



Chust bolalar uchun mo'ljallangan so'lim dam olish maskanlariga boyligi bilan ham e'tiborlidir. Tog'yon bag'rilaridagi, toshqin G'ovosoy bo'yidagi xushmanzara joylar hamisha bolalar bilan gavjum. Shahar markazidagi madaniyat va istirohat bog'i o'zining turli baliqlari-yu tonuslari, yuzlab zilol buloqlari, bir necha asrlarni qaritgan

chinorlari bilan mashhur. Erta bahordan kech kuzgacha bu yerdan mehmonlar arimaydi. Shahrimizga siz ham bir keling, mo'jizani o'z ko'zingiz bilan ko'ring. Chustliklar juda mehmondo'st.

Muhammadsharif FAYZULLAYEV,
Chust shahridagi 9-maktabning
8-sinf o'quvchisi

Chustliklarim

Ko'zlarining nurin qo'shib do'ppi tikkan,
Gullarining ipaklari mehrikan,
Har gulida jilvalanar go'yo Vatan,
Ko'ngli osmon, nurli ochiq yuzliklarim –
Momolarim, onalarim chustliklarim.

Rim qilichin dog'da qo'ygan pichoqlari,
Ko'rmaganga armon bo'lgan gulbog'lari,
Dunyolarga keng ochilgan quchoqlari,
Mehmon kelsa qo'lda non-u tuzliklarim –
Har bir kunin bayram qilgan chustliklarim.

Olmosimdan chiqqan asli tanti dehqon,
Qo'llarida olmosdan ham keskir ketmon,
Chayla qurib, dalasida uydi xirmon,
Mehnat ila halol rizq-u ro'zliklarim –
Yulduzlardek sochilgandir chustliklarim.

Oymomani uyaltirar chiroylari,
Kulgusiga monand oqar sho'x soylari,
Bo'ston bo'lar qadam yetgan har joylari,
Qayrilmaqosh, quralay ko'z ko'hliklarim –
Go'zallardan go'zal qizlar chustliklarim.

Zulfiya BEKTONOVA,
Chust shahridagi 2-akademik
litsey talabasi





Viloyat bo'ylab qilgan safarimiz chog'ida bu go'shada ham sportsevar o'g'il-qizlarning ko'pligidan quvondik va ular bilan hamsuhbat bo'ldik.

Ushbu sahifamizda namanganlik yosh sportchilarning qo'lga kiritayotgan yutuqlari haqida hikoya qilamiz.

Yaqinda Yurtboshimiz raisligida Oqsaroyda O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi Homiylik Kengashining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda sizdek sportga mehri baland bolalarning qiziqishi va intilishlari haqida

Yurtboshimizning quyidagi so'zlari jarangladi:

– Farzandlarimizning sportga bo'lgan mehrini bolalik davridan uyg'otgan taqdirdagina sport har qaysi odamning hayotida ham doimiy hamroh bo'lib qolishiga erisha olamiz.

Chust shahrida bo'lib o'tayotgan maktab o'quvchilari o'rtasidagi sport musobaqalarini kuzatar ekanmiz, bir holat hamisha diqqatimizni tortadi. Shahardagi 2-maktab o'quvchilari futbol bo'yicha zo'r bo'lsalar, 3-maktab o'quvchilari yengil atletika bo'yicha hamisha g'olib, 4-maktab o'quvchilari esa qo'l to'pi bo'yicha o'ziga xos mahoratga ega ekanliklarini har gal namoyon etadilar.

SEVARAMING SEVINCHI



Chustlik sportchi bolalar haqida gapirar ekanmiz, 9-maktab o'quvchilarini tilga olish joiz. Mazkur maskur stol tennisi bilan shug'ullanuvchi o'quvchilar uchun barcha shart-sharoitlar muhayyo. Keyingi yillarda yosh tennischilar nimalarga qodir ekanliklarini namoyon etdilar. Turli xalqaro musobaqalarda g'olib chiqib, yurt sharafigini munosib himoya qildilar. Ayni damda ixtisoslashtirilgan tennis maktabida iqtidorli sportchi o'quvchilar stol tennis bo'yicha shug'ullanib, g'olibona yurishlarini davom ettirmoqdalar.

Unda toblangan taniqli sportchi Sevvara Qodirova o'n yetti yoshida jahon chempioni, yoshlar o'rtasida Shvetsiyada o'tkazilgan jahon birinchiligida oltin medal sohibi bo'lib, maktab dovruq'ini dunyoga yoydi. Chust tumanida chempion aka-opalari izidan dadil borayotgan o'quvchi yoshlar talaygina. Sportning turli sohalarida o'tkaziladigan jahon birinchiliklarida, ishonamizki, chustlik sportchi bolalar nomi jaranglaydi.

MURABBIY QUVONCHI



Yangiqo'rg'on tumanidagi 21-short maktabining badiiy gimnastika murabbiyi Olga Yusupovaning shogirdlari soni kun sayin ortib boryahti.

Tumandagi 10-maktab o'quvchilari Diyora Yoqubjonova, Shahzoda Sobirjonova, Diyora Abduravhidova hamda besh yoshli Farog'at Nosirjonovaning qo'lga kiritayotgan natijalaridan murabbiyning quvonchi cheksiz.

Sevinishga sabab bor-da! Viloyatdagi hech bir tadbir Olga qonaning shogirdlarisiz o'tmaydi, axir!..

Musobagadan - Musobaqaga



Mahmuda Turg'unova Uchqo'rg'on tumanidagi 6-maktabning 8-sinfida o'qiydi. Uning sport bilan muntazam shug'ullanishida murabbiyi Mahliyo Abduvaliyevaning hissi katta. Ustoz ishonchini oqlab kelayotgan badiiy gimnastikachi dugonangiz sportning mashaqqatli yo'lini tanlab adashmadi.

Bahor bayrami arafasida u viloyat hokimi sovrini uchun o'tkazilgan musobaqada ishtirok etdi.

Musobaqadan-musobaqaga tajribasi ortib borayotgan Mahmudadan kelgusida umidimiz katta!



To'raqo'rg'on tumanidagi 36-Bolalar va o'smirlar sport maktabiga ta'shri f i m i z kutilmaganda-ro'y berdi. U yerga tezroq yetib borishimiz lozimligini b o s h q a r m a

HARAKATDA BARAKAT

boshlig'i Dilshoda opa Dadajonovadan eshitdik-u, yo'lga otlandik. Maktab direktori Gulchehra opa Sobirovani sportchilar libosida uchratib:

– Gimnastikachi qizlar bahor bayramini ertaroq boshlashibdimi? – deya suhbatga chorladik opani.

– Albatta, chaqqon va mafunkor qizlarimiz bugun viloyat hokimi sovrini uchun bahslarni boshlab yuborishdi. Tumanimizda bunday musobaqalarning tez-tez o'tkazilishiga sabab badiiy gimnastikachi qizlarimizning soni kundan-kunga oshib borayotganidir, – dedilar mamnunlik bilan.

Mahliyo Jo'rayeva, Mohlaroy Omonova, Shahrizoda Omonova, Yodgora Abdusattorova kabi gimnastikachi qizlar tuman faxriga aylanishini eshitib, Gulchehra opaning quvonchiga sherik bo'ldik. Bu maktabda bugun 272 nafardan ziyod bo'lajak sportchilar tahsil olmoqdalar. Ularning 253 nafarini qizlar tashkil etishining o'ziyoq viloyatda bolalar, ayniqsa, qizlar sportiga e'tibor yuqori ekanligini isbotlab turibdi.

Chindan-da, mamlakatimizda bolalar sportini rivojlantirmasdan turib, o'zbek sporti kelajagini ta'minlash, xalqaro maydonda uning obro'-e'tibor qozonishiga erishish mumkin emas.

Gulbahor ga havas qilishdi



Odatdagiga ko'ra, Namangan tumanidagi 28-maktab o'quvchisi Gulbahor Zohidova darsdan so'ng «Pahlavon» sport majmuasiga oshigadi. Kurashning sambo turi bilan shug'ullanayotgan bu tengdoshingiz mazkur bilim maskanining faxri hisoblanadi. U ko'plab musobaqalar ishtirokchisi.

Yaqinda u viloyat birinchiligida birinchi o'rinni egalladi. Sambo bo'yicha qizlar o'rtasida o'tkazilgan Respublika turnirida ishtirok etib, g'olib bo'ldi. Bundan barcha maktab o'quvchilari juda quvonishdi. Ayrim maktabdoshlari esa unga havas qilib, yosh sportchiga aylanishdi.



Bizning 2-umumta'lim maktabimiz Yangiqo'rg'on tumanining eng chekka qishloqlaridan biri Dehqonobodda joylashgan. Hozirda jami 680 o'quvchiga 50 nafar ustozlar ta'lim-tarbiya berib kelishmoqda. Ana shunday fidoyi ustozlardan Rahmonjon Imomnazarov, Mahbuba Otaboyeva, Muqaddas Yusufboyeva, Mahfuza Ibragimova, Qodirjon Nazarov, Salima Tursunova o'quvchilarga puxta bilim berib, bir qator yutuqlarga erishmoqdalar.

SO'LIM MASKAN

17 ta fan to'garaklariga jalb etilgan o'quvchilar ustozlari mehnatlarini oqlab, fan olimpiadalarida, turli ko'rik-tanlovlarda g'oliblikka erishmoqdalar. Bulardan «Yosh adabiyotchi» to'garagi a'zosi, 8-sinf o'quvchisi Abdullo Abdug'afforov o'z she'rlari, chizgan rasmlari bilan «Yosh iste'dodlarni izlaymiz» tanlovida faxrli 1-o'rinni egallab, viloyat bosqichiga yo'llanma oldi. O'tgan yili «Umid nihollari» musobaqasida ishtirok etgan yosh futbolchilarimiz tuman bosqichida 2-o'ringa da'vogarlik qilishgandi.

Ayni kunlarda maktabimiz atrofini obodonlashtirish ishlariga alohida e'tibor beryapmiz. 1000 dan ortiq terak ko'chati, 80 tup archa, 500 tup tok ko'chati ekib, parvarish qilmoqdamiz.

X.MASHRABOV, maktab direktori



TABRIKLAYMIZ!

Zulfiya nomidagi Davlat mukofotining bu yilgi sohibalari orasida Namangan viloyati, Yangiqo'rg'on tumanidagi 10-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Erkinjonova Oyxon Husniddin qizi ham bor.



U adabiyot yo'nalishi bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritdi. Maktabda a'lo baholarga o'qiydi, adabiyotga ishtiyoqi baland. She'r va hikoyalar yozadi. O'tgan yili «Kichik qizning katta orzulari» nomli she'riy to'plami bosmadan chiqdi.

Quyí sinflarda o'qib yurgan chog'laridanoq O'zbekiston radiosining «Kelajak tongi» eshittirishi hamda «Yoshlar» telekanalining «Navoiy nabiralari» ko'rsatuvlarida faol ishtirok etib keladi.

2008-yilda «Davlat tili – faxrimiz, g'ururimiz» insholar tanlovining viloyat bosqichida muvaffaqiyatli ishtirok etdi.

O'tgan «Barkamol avlod yili» miz ham Oyxonning hayotida o'chmas iz qoldirdi. «Yangi avlod» bolalar ijodiyoti festivalining viloyat bosqichida «She'riyat» yo'nalishi g'olibi bo'ldi. Shuningdek, Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi tomonidan yosh ijodkorlar o'rtasida o'tkazilgan ko'rik-tanlovda «Eng yaxshi hikoya» yo'nalishi bo'yicha 2-o'rinni egalladi.

«Ma'rifat», «Turkiston», «Tong yulduzi» gazetalari hamda «Gulxan», «G'uncha» jurnallarida o'z ijod namunalari bilan qatnashib keladi. «Kamolot» YOIH boshlang'ich tashkiloti faollaridan biri bo'lgan Oyxon har jabbada tengdoshlariga o'rnak bo'lib, maktabi, tumani, qo'ying-chi, viloyati sharafiga oqlab kelayotgan qizlarimizdan.

BILASIZMI?
A Q S H n i n g
sobiq Prezidenti Jimmi
Karter minutiga 2000 ta
so'zni o'qiy olgan.

Bolalar sevib
tomosha qiladigan
mashhur multqahramonlar
Mikki Maus va Jerrini yaratgan
Uolt Disney shiqonlardan
o'lguday qo'rqgan.



Mazkur sonni tayyorlashda
yaqindan yordam
ko'rsatganliklari uchun
O'zbekiston Respublikasi Xalq
ta'limi vazirligi, Axborot xizmati
rahbari J.Musayeva, Namangan
viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi
boshlig'i Dilshoda
DADAJONOVA ga o'z
minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Maxsus sonni tayyorlaganlar:

T. HAYITOV,
F. JALILOVA,
FADILOVA,
M.MADRAHIMOVA,
YU. ABDULLAYEV,
G. ORIFJONOVA,
N. ABDULLAYEVA,
F.MATYOQUBOV
F. SHOYODGOROV.



yoki 10. 000 tup gul yetishtirayotgan
otaxon haqida

Qiziq, sarlavhani o'qib, «G'alcha» so'ziga tushunolmay turibsiz-a? Avvaliga o'zimiz ham hayron qoldik. Axir o'zbek tili lug'atida buning izohi hech narsaga tushunmas odam ma'nosini beradi. Ammo...

Gapni endi bizdan eshitng: Qishloqdagi 39-maktabgacha ta'lim muassasasida bo'lganimizda, tabiat darsxonasi-yu mo'jizasidan yiroq ketolmay qoldik.

Axir bu yerni obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirishga nafaqaxo'r, sobiq biologiya-geografiya fani o'qituvchisi Husanboy Hoji ota Nuriddinovning juda ko'p mehnatlari singgan ekan-da! Keling, yaxshisi, Hoji ota bilan issiqxonalar tomon yo'l olaylik-chi, sehrli nabotot olami bizga nimalarni «so'zlarin»?

Issiqxonalardagi baravj yashnab turgan fiola, margaritka, xrizantema, chinnigul, katarantus va gultojxo'roz, jami o'n mingdan ortiq yaqin gul ko'chatlari parvarishini ko'rib, Husanboy otaga, yashang-e, otaxon, dedik. Bu hali hammasi emas, deya, bizni oshqovoq, pomidor, garmdori-yu baqlajon uchun tayyorlab qo'yilgan yer maydoni sari boshlaydilar. Muassasa bog'idagi o'rik, olcha, bodom, behi, nok, olma, anjir, xurmo, yong'oq kabi mevali daraxtlar usta bog'bon mehridan ko'kka bo'y cho'zgan.

Norin tumanidagi 10-maktab-bog'cha majmuasi rahbari Sanobarxon opa Azimovani tadbirkor mudira ham deyishadi. Viloyatda bo'lib o'tgan «Yil ayoli» tanlovi tirishqoq mudira opaning yana bir qirrasini «ko'z-ko'z» qildi.

Opa rahbarlik qilayotgan majmuaga ko'z tashlaymiz. Bu yerdagi issiqxonada 40 tup limon mevasidan bolajonlar bahramand bo'lmoqda. Boqilayotgan uy jonivorlari va parrandalar bolalarni tabiatga oshno etyapti. Majmua oshxonasi uchun ko'kat va sabzavotlar ham issiqxonada yetishtiriladi. 600 tup xurmo ko'chatidan keladigan daromad esa maktab-bog'chaning sarmoyasini boyitadi.

Quvnoqlar maskanidagi har bir o'yinchoqdan tortib, yashnab turgan o'simlikda ham hamkasblariga o'rnak bo'layotgan Sanobar opaning mehnati samarasini ko'ramiz.



TADBIRKOR MUDIRA

BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin
SHOYODGOROV,
Olovuddin
ORIPOV
Navbatchilar:
Feruza SOYIBJON qizi,
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta
O'zbekiston
Matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Avaz MARAHIMOV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manziliimiz:

Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel/faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»

NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 71378
Buyurtma N: J 1301

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

